

“BIZNES ETIKASI” FANIDAN YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI

1. Biznes etikasi fanining mazmuni, predmeti va vazifalarini batafsil yoritib bering hamda ushbu fan zamonaviy iqtisodiy tizimda qanday o‘rin egallashini nazariy jihatdan asoslab izohlang.
2. Ishbilarmonlik muloqoti tushunchasini keng yoritib, uning asosiy turlari (verbal, noverbal, rasmiy, norasmiy va boshqalar)ni tizimli ravishda tavsiflab bering.
3. Nizo tushunchasining mohiyatini ochib bering hamda uni iqtisodiy va boshqaruv jarayonlaridagi o‘rnini ilmiy asosda izohlang.
4. Stress tushunchasini psixologik va boshqaruv nuqtai nazaridan izohlab, uning ish jarayoniga ta‘sirini tushuntirib bering.
5. Risk tushunchasini iqtisodiy kategoriya sifatida ta‘riflab, biznes faoliyatida uning asosiy ko‘rinishlarini izohlab bering.
6. Demokratik rahbarlik uslubining mohiyatini ochib bering va uni avtoritar hamda liberal uslublar bilan taqqoslab, asosiy farqlarini izohlang.
7. Axloqiy javobgarlik tushunchasining mazmunini ochib bering hamda uning burch, vijdon va adolat kabi axloqiy kategoriyalar bilan o‘zaro bog‘liqligini tushuntiring.
8. Nizolarning ochiq va yopiq shakllarini izohlab, ular qaysi sharoitlarda yuzaga kelishini misollar orqali tushuntirib bering.
9. Ob‘ektiv va sub‘ektiv nizolar o‘rtasidagi farqlarni aniqlab, ularning kelib chiqish mexanizmini tahliliy tarzda izohlang.
10. Konstruktiv va destruktiv nizolarning mohiyatini ochib berib, ularning tashkilot faoliyatiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini tushuntiring.
11. Tasavvur qiling, siz tashkilot rahbarisiz: jamoada yuzaga kelgan nizoli vaziyatni hal qilish uchun qanday aniq bosqichlar asosida harakat qilgan bo‘lardingiz? Ushbu jarayonni amaliy misol asosida yoritib bering.
12. Yuqori stressli ish muhitida xodim sifatida o‘z faoliyatingizni qanday tashkil etgan bo‘lardingiz va samaradorlikni saqlab qolish uchun qanday usullardan foydalangan bo‘lardingiz?
13. Biznes muzokaralarini samarali olib borish uchun qanday strategiya va taktikalarni qo‘llash zarur? Aniq vaziyat asosida tushuntiring.
14. Xodimlarni ishga qabul qilish jarayonida axloqiy mezonlarni qanday qo‘llash mumkinligini real tashkilot misolida izohlang.
15. Biznes xatini yozishda zamonaviy etik talablar va rasmiy uslub normalarini amaliy jihatdan qanday qo‘llash mumkinligini tushuntiring.
16. Tashkilotlarda yuzaga keladigan nizolarning asosiy sabablarini (iqtisodiy, psixologik, ijtimoiy omillar) chuqur tahlil qiling va ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsating.
17. Nizolarning oqibatlarini konstruktiv va destruktiv natijalar nuqtai nazaridan tahlil qilib, ularning tashkilot rivojiga ta‘sirini asoslab bering.
18. Biznes risklarining xavflilik darajasi ortishiga olib keluvchi omillarni tahlil qilib, ularning ichki va tashqi sabablarini ajratib ko‘rsating.

19. Yapon va Xitoy biznes muloqoti madaniyatini tahlil qilib, ularning o'ziga xos jihatlari va farqlarini aniqlang.
20. Etika va odob-axloq tushunchalari o'rtasidagi munosabatni falsafiy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qiling.
21. Zamonaviy tashkilotlarda biznes etikasining ahamiyatini baholab, uning kompaniya muvaffaqiyatiga ta'sirini ilmiy asosda izohlang.
22. Nizolarni boshqarish usullaridan qaysi biri eng samarali deb hisoblaysiz? Tanlovingizni aniq argumentlar bilan asoslang.
23. Rahbarlik uslublari orasida qaysi biri zamonaviy sharoitda samaraliroq ekanligini baholab, o'z nuqtai nazariningizni asoslab bering.
24. Xodimlarni qisqartirish jarayonining axloqiy jihatlari baholab, bu jarayonda qanday tamoyillarga amal qilish zarurligini tushuntiring.
25. Ekologik etikaning biznes faoliyatidagi ahamiyatini baholab, uning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini izohlang.
26. Zamonaviy tashkilot uchun universal biznes etik kodeks loyihasini ishlab chiqing va uning asosiy bo'limlarini izohlab bering.
27. Nizolarni boshqarishning innovatsion modelini ishlab chiqing va uni amaliy qo'llash mexanizmini tavsiflang.
28. Tashkilotda stressni kamaytirishga qaratilgan kompleks boshqaruv dasturini ishlab chiqing va uning asosiy elementlarini tushuntiring.
29. Xalqaro biznes muhitida qo'llash mumkin bo'lgan etik tamoyillar tizimini ishlab chiqing va uni global iqtisodiy jarayonlar bilan bog'lab izohlang.
30. Raqobat muhitida etik tamoyillarga asoslangan biznes strategiyasini ishlab chiqing va uning ustunliklarini asoslab bering.
31. Ishchi guruhlar (mehnat jamoalari)ning turli tasniflarini tahlil qiling hamda har bir turdagi jamoada shakllanadigan axloqiy muhitning o'ziga xos xususiyatlarini izohlab bering.
32. Rahbar va xodimlar o'rtasidagi psixologik munosabatlarning tashkilotdagi etik muhitga ta'sirini tahlil qilib, samarali munosabatlarni shakllantirish omillarini aniqlang.
33. Biznes muloqoti strategiyasi va taktikasining o'zaro farqli va o'xshash jihatlari tahlil qilib, ularning amaliy qo'llanish sohalarini izohlab bering.
34. Formal va noformal ijtimoiy nazorat mexanizmlarining biznesdagi o'rnini tahlil qilib, ularning xodim xulq-atvoriga ta'sirini asoslab bering.
35. Jamiyat taraqqiyotida ishbilarmonlik etikasi rivojlanishining asosiy bosqichlarini tahlil qilib, ularning zamonaviy iqtisodiyotga ta'sirini ko'rsating.
36. Menejerning turli psixologik yondashuvlari (avtoritar, demokratik, liberal) asosida shakllanadigan etik darajani baholab, qaysi yondashuv samaraliroq ekanligini asoslab bering.
37. Tashkilotda xodimlarning axloqiy darajasini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni baholab, ularning samaradorligini tahlil qiling.
38. Ishbilarmonlik muzokaralarini o'tkazish jarayonida etik normalarga amal qilinmasligi qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini baholang.
39. Biznes xulqining kompaniya imiji va brendiga ta'sirini baholab, real yoki nazariy misollar orqali asoslab bering.

40. Xulq-atvor qoidolari va tamoyillarining tashkilot ichki muhitiga ta'sirini baholab, ularning ahamiyatini tushuntiring.
41. "Biznes – etikaning uzviy qismi" degan fikrni baholab, ushbu qarashning nazariy va amaliy asoslarini izohlang.
42. Biznes etikasi asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining samaradorligini baholab, uning ustunliklarini asoslab bering.
43. Zamonaviy boshqaruvda ishbilarmonlik etikasi tamoyillarining qo'llanish darajasini baholab, ularning rivojlanish istiqbollarini tahlil qiling.
44. Biznes etiketining normalari va ularning tashkilot faoliyatidagi ahamiyatini baholab, ularning buzilishi qanday oqibatlarga olib kelishini tushuntiring.
45. Nutq etiketi va nutq madaniyatining biznes muvaffaqiyatiga ta'sirini baholab, uning kommunikatsiyadagi rolini asoslab bering.
46. Zamonaviy tashkilot uchun mukammal ishbilarmonlik muloqoti modelini ishlab chiqing va unda etik me'yorlarning tutgan o'rnini batafsil asoslab bering.
47. Xalqaro biznes faoliyati uchun universal etik tamoyillar tizimini ishlab chiqib, uni turli madaniyatlararo muhitga moslashtirish mexanizmini tushuntiring.
48. Tashkilotda nizolarni oldini olish va ularni samarali boshqarishga qaratilgan kompleks strategik dastur ishlab chiqing.
49. Stressni boshqarish va xodimlar psixologik barqarorligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion boshqaruv tizimini ishlab chiqing.
50. Xodimlarni tanlash, ishga qabul qilish va rivojlantirish jarayonlari uchun etik mezonlarga asoslangan kompleks tizimni ishlab chiqing.
51. Ekologik etika tamoyillariga asoslangan "yashil biznes" modelini ishlab chiqib, uning iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklarini asoslang.
52. Raqobat muhitida etik tamoyillarga amal qilgan holda kompaniya rivojlanish strategiyasini ishlab chiqing va uning samaradorligini asoslab bering.
53. Tashkilotda yuqori darajadagi korporativ madaniyatni shakllantirishga qaratilgan kompleks etik dastur ishlab chiqing.
54. Biznes yozishmalari (xatlar, email, rasmiy hujjatlar) uchun yagona standart etik qoidalar tizimini ishlab chiqing.
55. Telefonda va onlayn muloqotda etik normalarni ta'minlashga qaratilgan amaliy qo'llanma (guideline) ishlab chiqing.
56. Jamiyatni tartibga solishda axloqiy va huquqiy tamoyillarni uyg'unlashtiruvchi model ishlab chiqing.
57. "Yaxshi" tushunchasining biznes etikadagi talqinini asoslab, unga asoslangan qaror qabul qilish modelini ishlab chiqing.
58. Raqobatchilarga nisbatan etik munosabatni ta'minlashga qaratilgan korporativ siyosat loyihasini ishlab chiqing.
59. Tezkor qayta aloqa va past xavf bilan tavsiflanadigan biznes madaniyat turini rivojlantirish bo'yicha innovatsion konsepsiya ishlab chiqing.
60. Tadbirkorlik faoliyatida amal qilinishi lozim bo'lgan xulq-atvor tamoyillarini tizimlashtirib, zamonaviy biznes uchun universal etik kodeks shaklida ishlab chiqing.

Tuzuvchi i.f.n., dots.

N.Iminova